

**SAMARQAND DAVLAT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.26/27.02.2020.T.109.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA
TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

JIZZAX POLITEKNIKA INSTITUTI

BUTAYEVA NARGIZA BURIBOYOVNA

**TALABALRNING TEXNOLOGIK KOMPETENTLIGINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TIZIMLI YONDASHUV ASOSIDA
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnika fanlari)

**Pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертациидоктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on Pedagogical Sciences**

Butayeva Nargiza Buriboyovna

Talabalarning texnologik kompetentligini rivojlantirish metodikasini tizimli yondashuv asosida takomillashtirish..... 3

Бутаева Наргиза Бурибоевна

Совершенствование методики развития технологической компетентности студентов на основе системного подхода..... 23

Butaeva Nargiza Buribaevna

Improvement of the methodology for the development of students' technological competence based on a systematic approach 45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 49

**SAMARQAND DAVLAT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PHD.26/27.02.2020.T.109.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR
MARTALIK KENGASH**

JIZZAX POLITEKNIKA INSTITUTI

BUTAYEVA NARGIZA BURIBOYOVNA

**TALABALARNING TEXNOLOGIK KOMPETENTLIGINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TIZIMLI YONDASHUV ASOSIDA
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnika fanlari)

Pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati

Samarqand –2025

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Ped7020 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdaqu.edu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Askarov Ixtiyorjon Baxtiyorovich

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

Rasmiy opponentlar:

Kiyamov Nishon Sadikovich

pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Xayitova Shaxnoza Donyarovna

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.26/27.02.2020.T.109.01 – raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “___” _____soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil:140147, Samarqand shahri, Lolazor ko'chasi, 70-uy. Tel.:(+99866) 237-15-93, faks: (+998662) 237-26-30; e-mail: samdaqu@edu.uz) Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti kichik majlislar zali.

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№_____raqam bilan ro'yxatga olingan).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “___” _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil “___” _____ - raqamli reyestr bayonnomasi).

S.M.Boboyev

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik

Ilmiy kengash raisi., t.f.d., professor

R.M.Maxmudov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik

Ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.n., dotsent

Sh.Z.Taylanova

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik

Ilmiy kengash qoshidagi bir martalik

Ilmiy seminar raisi, p.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda bugungi kundagi globallashuv sharoitida ta'lim sohasidagi o'zgarishlar va ushbu yo'nalishdagi mavjud muammolarni bartaraf etish yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. Rivojlangan davlatlar oliy ta'lim muassasalarida ta'lim va ishlab chiqarish jarayonlaridagi integratsiyani to'g'ri tashkil qila oladigan, yangiliklarga intiluvchan, mavjud kasbiy muammolarni hal qilishda yangicha yondasha oladigan nostandart vaziyatlarda to'g'ri qaror chiqara oladigan mutaxassislarni tayyorlashni taqozo etadi. Shu jihatdan bugungi kundagi jahon mehnat bozori talablari asosida ta'lim xizmatlarining innovatsion texnologiyalarini yaratish va amaliyotga joriy etish orqali bo'lajak muhandislarning texnologik kompetentsiyalarini rivojlantirish tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahondagi ko'plab pedagogik olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, kasbiy rivojlanishi va elektron ta'lim vositalarini takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada talabalarni kelgusidagi kasbiy faoliyatga tayyorlash sifatini oshirish, ixtisoslik fanlarini o'rganishda texnik layoqatini kengaytirish, texnik dunyoqarashini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlarni tahlil qilish va ixtisoslik fanlari xususiyatlaridan kelib chiqib talabalarda texnologik kompetentlikni rivojlantirishga imkon beruvchi ijodiy kasbiy topshiriqlar, talabalarni faollashtiruvchi interaktiv ta'lim metodlarini qo'llash orqali mazkur metodikani takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda bo'lajak muhandislarni tayyorlash sifatini yangi bosqichga ko'tarish, talabalarni innovatsion faoliyatga yo'naltirish va oliy ta'lim muassasalari ta'lim jarayoniga elektron ta'lim resurslaridan foydalanib professional kadrlarni tayyorlash bo'yicha muayyan natijalarga erishilmoqda. Shu bois, "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonda "...milliy elektron ta'lim resurslari yaratilishini jadallashtirish, xorijiy elektron ta'lim resurslarini tarjima qilish ishlarini tashkil etish, ta'lim jarayonida elektron resurslar salmog'ini bosqichma-bosqich oshirib borish, elektron o'quv adabiyotlar yaratish, ularni mobil qurilmalarga yuklab olish maqsadida kutubxonalarda QR-kod yordamida elektron resurslar haqidagi axborotlarni joylashtirish tizimini yaratish"¹ muhim vazifa sifatida belgilab berilgan. Shu kabi vazifalarni amalga oshirishda texnika ta'lim yo'nalishlarining ixtisoslik fanlarini o'qitishda kasbiy bilimlar (EHM uchun mo'ljallangan dasturlar, mobil ilova dasturlari, elektron darsliklar, ixtisoslik fanlari uchun foydalaniladigan innovatsion test va maxsus topshiriqlar tizimi) asosida ishlab chiqarish faoliyatiga tayyorlash jarayonida xalqaro standartlarga asoslangan elektron ta'lim vositalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlarini rivojlantirish va ta'lim jarayoniga keng joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi (2019 yil 8 oktyabr) PF-5847-sonli Farmoni, 1-ilova 9-bandi // <https://lex.uz/docs/4545884>.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2018-yil 19-fevraldagi PF-5349-son “Axborot texnologiyalari kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” dasturining ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi.

Ta‘lim jarayoniga tizimli tahlilni qo‘llash, tizimli yondashuv asosida fizika fani o‘qitish metodikasi bo‘yicha yurtimiz olimlaridan K.Z.Zaripov, S.Q.Qahhorov, H.O.Jo‘rayev, M.Qurbonov, M.Yu. Mansurova, S.Y.Maxmudova, B.N.Nurillayev, G.Y.Karlibayeva, Q.Sh.Tursunovlar MDH davlatlari olimlari V.G. Afanasev, B.T. Lixachev, tadqiqotchi I.A. Suchevarlar va boshqalar shug‘ullanganlar.

Kompetentlik tushunchasi, talabalarda texnologik kompetentlikni rivojlantirish, texnologik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik, texnologik va metodik mohiyatiga oid ilmiy tadqiqot ishlari bilan respublikamizning yetakchi olimlaridan R.Djo‘rayev, A.Xodjaboev, N.Muslimov, O‘.Tolipov, Q.Abdullaeva, Sh.Sharipov, O.Qo‘ysinov, J.Hamidov, I.B.Askarov, M.A.Choshanov, B.Muqimov, I.I.Umirov va boshqalar ilmiy tadqiqot shlarini olib borganlar.

MDH davlatlaridan E.I.Ogarev, A.A.Skamnitskiy, S.A.Yefimova O.P.Oleynikova, A.A.Skamnitskiy G.V.Yarochkina, A.Markova, V.I.Zagvyazinskiy, V.M.Simonov, .A. Alekseyev va boshqalarning ishlarida talabalarda texnologik kompetentligini rivojlantirishga oid ilmiy tadqiqot olib borishgan

Xorij mamlakatlari olimlaridan talabalarda tizimli yondashuv asosida texnologik kompetentsiyalarni rivojlantirishning nazariy asoslari Lyudvig Fon Bertalanfi, L.Bertalanfi, F.E.Temnikov, N.D. Xmel, M.Lederer, J.M.Hollander, I.Perman, V.V.Serikov, A.Markeev, B.Bloom va boshqalarning tadqiqot ishlarida o‘z aksini topgan

Ushbu olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarini tahlil qilish talabalarda texnologik kompetentlikni rivojlantirishda xizmat qiladigan tarkibiy tuzilma ishlab chiqish,

talabalarda texnologik kompetentlikni rivojlanganlik darajalarini baholash mezonlarini takomillashtirish zaruratini ko'rsatmoqda.

Tadqiqot mavzusining Dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlangan davlat granti asosida bajarilishi mo'ljallangan "Vermikulit asosida issiqlikka chidamli va olovga bardosh qurilish plitalarini ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish" nomli (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi va Jizzax politexnika instituti bilan 2024 yilning may oyidagi "Ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi asosida Ilmiy loyihani bajarish to'g'risida" tuzilgan IL-8223092060-son shartnoma asosida) loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarida tizimli yondashuv asosida talabalarning texnologik kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

umumkasbiy fanlarni tizimli yondashuv asosida o'qitishda talabalarning texnologik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari, tarkibiy komponentlari nazariy jihatdan tahlil qilish va bo'lajak muhandislarda texnologik kompetentligini rivojlantirishning tarkibiy tuzilmasini ishlab chiqish;

bo'lajak muhandislarni texnologik kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi elektron ta'lim platformasi va mobil ilova dasturlari hamda texnologik kompetentligini rivojlantirish modelini ishlab chiqish;

talabalarning texnologik kompetentligini rivojlantirishda tashkiliy va pedagogik shartlarning joriy etilish metodikasini interaktiv ta'lim metodlari yordamida takomillashtirish;

talabalarning texnologik kompetentligini rivojlanganlik darajalarining baholash mezonlari ishlab chiqish va pedagogik tajriba-sinov ishlarini o'tkazish hamda olingan natijalarning samaradorligini asoslash.

Tadqiqotning ob'ektini texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarida texnologik kompetentligini rivojlantirish jarayoni belgilangan bo'lib, tajriba-sinov ishlariga Farg'ona politexnika instituti, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti hamda Jizzax politexnika institutlarining 60721200 - Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (trikotaj) ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan bo'lajak sanoat muhandislari jami 366 nafar respondent-talabalari jalb etildi.

Tadqiqotning predmetini tizimli yondashuv asosida talabalarda texnologik kompetentligini rivojlantirish mazmuni, usullari, bosqichlari, shakllari va metodikasi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusiga oid ilmiy metodik va elektron o'quv manabalarini qiyosiy tahlil qilish, ta'lim jarayonini kuzatish, tushunchalarni aniqlash maqsadida anketa so'rovnoma o'tkazish, tadqiqot maqsadi shakllanganligi, o'qituvchi va talabalar bilan suhbatlar; laboratoriya ishlarini bajarishda talabalar faoliyatini kuzatish, pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalarini statistik va analitik tahlil qilish va ishlov berish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

umumkasbiy fanlarni tizimli yondashuv asosida o'qitishning pedagogik xususiyatlari, tarkibiy komponentlari va adaptive programs (moslashuvchan dasturlar) texnologiyalari integratsiya qilinib, talabalarni chuqur mantiqiy tafakkur va texnologik kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan tarkibiy tuzilmasi ishlab chiqilgan;

texnika oliy ta'lim muassasalarida talabalarining texnologik kompetentligiga qo'yiladigan malaka talablarining mazmunidan kelib chiqqan holda ularda texnologik kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi phygital platform (fizik-raqamli platforma), mobil ilova dasturlari hamda talabalarining kasbiy tayyorgarligini zamonaviy global standartlarga moslashtirish imkonini beruvchi texnologik kompetentligini rivojlantirish modeli ishlab chiqilgan;

talabalarining texnologik kompetentligini rivojlantirishda umumkasbiy fanlarni o'qitish uchun zarur bo'lgan maxsus performance-based assignments (natijaga yo'naltirilgan topshiriqlar) yordamida talabalarining texnologik kompetentligini rivojlantirish metodikasi "The table of elements", "The Insights method", "Scoring discussion" va "Science assignment" interaktiv metodlari asosida takomillashtirilgan;

kompleks pedagogik tajribalar va ijodiy kasbiy topshiriqlar asosida ishlab chiqilgan adaptive assessment (moslashuvchan baholash) tizimi talabalarining texnologik kompetentligini rivojlantirish darajalarini baholash mezonlari (reproduktiv, variativ, kreativ) zamonaviy competence analytics (kompetensiya tahlili) va AI-powered assessment (sun'iy intellekt asosidagi baholash) usullari yordamida optimallashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

talabalarda hozirgi kundagi zamonaviy mobil qurilma va turli xildagi gadjetlardan foydalanib ta'lim jarayonida talabalarining bilimlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan "Muhandislik fizikasi" ixtisoslik fanidan elektron mobil ilova dasturi va elektron platforma (O'zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligi № DGU 42037 O'zbekiston Respublikasining Dasturiy mahsulotlar davlat reyestrda 23.08.2024 y) ishlab chiqilgan;

bo'lajak muhandislarda texnologik kompetentlikni rivojlantirish maqsadida ixtisoslik fanlaridan talabalarining ta'lim jarayonidagi faolligini oshirish, bilimlarni mustahkamlash, texnologik jarayonlarni modellashtirish ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi "Talabalarda texnologik kompetentlikni rivojlantirishning metodik va didaktik asoslari" nomli metodik ta'minot ishlab chiqilgan ;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda olingan natijalarni o'zida aks ettirgan respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-metodik va ilmiy-amaliy anjumanlar materiallari to'plamlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tasarrufidagi hamda xorijiy ilmiy-uslubiy jurnallarda nashr etilgan ilmiy va ilmiy-metodik maqolalar, tadqiqot muammosi bo'yicha o'tkazilgan anketa so'rovlari, tajriba-sinov ishlarining samaradorligi matematik-statistik usullar asosida aniqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi hamda vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati 60721200 - Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (trikotaj) ta'lim yo'nalishining "Muhandislik fizikasi" fanidan platforma va mobil texnologiyalar asosida "The table of elements", "The Insights method", "Scoring discussion" va "Science assignment" kabi interaktiv ta'lim metodlar asosida talabalarda texnologik kompetentlikni rivojlantirish, shuningdek, EHM uchun mo'ljallangan kompyuter dasturlari imkoniyatlaridan foydalanib kasbiy bilim olish jarayonini rivojlantirishga imkon beradigan ta'lim berish metodikasi va mobil ilovalardan foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, talabalarda texnologik kompetentlikni rivojlantirishda elektron platforma, mobil ilova dasturlari, maxsus kurs, metodik va o'quv qo'llanmalar yaratishda foydalanishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tizimli yondashuv asosida 60721200 - Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (trikotaj) yo'nalishi talabalarini texnologik kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqot ishlarining natijalari asosida:

texnika oliy ta'lim muassasalarida talabalarining texnologik kompetentligiga qo'yiladigan malaka talabalarining mazmunidan kelib chiqqan holda ularda texnologik kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi phygital platform (fizik-raqamli platforma), mobil ilova dasturlari hamda talabalarining kasbiy tayyorgarligini zamonaviy global standartlarga moslashtirish imkonini beruvchi texnologik kompetentligini rivojlantirish modelini hisobga olgan holda "Muhandislik fizikasi" nomli o'quv qo'llanma yaratildi (O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 11-noyabrdagi 429-sonli buyrug'i № 429-529 sonli guvohnomasi). Natijada texnika oliy ta'lim muassasalarida talabalarining texnologik kompetentligini rivojlantirish imkoni kengaytirilgan;

umumkasbiy fanlarni tizimli yondashuv asosida o'qitishning pedagogik xususiyatlari, tarkibiy komponentlari va adaptive programs (moslashuvchan dasturlar) texnologiyalari integratsiya qilinib, talabalarni chuqur mantiqiy tafakkur va texnologik kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan xizmat qiladigan "Muhandislik fizika fani yordamida talabalarining texnologik kompetentligini rivojlantirish" nomli platforma dasturi ishlab chiqilgan (Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi 2025-yil 12-martdagi 02/01-01-92-son ma'lumotnomasi). Mazkur zamonaviy didaktik ta'minot muhandislarni kasbiy topshiriqlarni zamonaviy didaktik vositalar asosida muhandislik fizikasi fanini o'zlashtirishda va uning didaktik imkoniyatlarini takomillashtirishga xizmat qilgan.

talabalarining texnologik kompetentligini rivojlantirishda umumkasbiy fanlarni o'qitish uchun zarur bo'lgan maxsus performance-based assignments (natijaga yo'naltirilgan topshiriqlar) yordamida talabalarining texnologik kompetentligini rivojlantirish metodikasi "The table of elements", "The Insights method", "Scoring discussion" va "Science assignment" kabi interaktiv metodlardan foydalangan holda "Talabalarda texnologik kompetentlikni rivojlantirishning metodik va didaktik asoslari" nomli metodik qo'llanma ishlab chiqilgan (Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi 2025-yil 12-martdagi 02/01-01-92-son ma'lumotnomasi).

Natijada talabalarning texnologik kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro, 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazildi.

Natijalarning e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi yuzasidan jami 20 dan ortiq ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 8 ta, jumladan respublika jurnallarida 5 ta va xorijiy jurnallarda 3 ta maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 134 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqqligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi tahlil etilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, ob'ekti hamda predmeti aniqlangan, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tizimli yondashuv asosida talabalarning texnologik kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida tizimli yondashuv asosida oliy ta'lim muassasalarida “Muhandislik fizikasi” fanini o'qitishning nazariy-metodik jihatlari, talabalarning texnologik kompetentligi pedagogik tadqiqotning predmeti sifatida, umumkasbiy fanlarni o'qitishda talabalarning texnologik kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari, ilmiy-tadqiqot ishlarining tahlili bayon qilingan hamda talabalarning texnologik kompetentsiyalarini rivojlantirishning tarkibiy tuzilmasi ishlab chiqilgan.

Bugungi kunda tizimli yondashuv ta'lim sohasini ham qamrab olmoqda. Ta'lim tizimi oldimizga yangi vazifalarni qo'yimoqda, bizdan tafakkurimizni o'zgartirishni taqozo qilmoqda. Yangi standartni amalga tadbiq qilishda har bir o'qituvchi o'z predmet doirasidan chiqmog'i va birinchi galda o'quvchi shaxsi rivojlanishini o'ylashi kerak, o'quvchida universal ko'nikmalarni shakllantirishi kerak, chunki o'quvchi bularsiz ta'limning navbatdagi bosqichlarida ham, kasbiy faoliyatida ham muvaffaqiyatga erisha olmaydi

Tizimli tahlil o'z rivojlanishi jarayonida muammoli vaziyatlarda rahbarning afzal ko'riladigan yo'lni tanlashiga yordam beradigan metodlar doirasiga aylandi va hozirgi vaqtda fanlararo ilmiy yo'nalish sifatida rivojlanib bormoqda.

Tizim – bu elementlardan tashkil topgan ob'ekt yoki ob'ektlar yig'indisi.

Tizim – bu o'zaro bog'liq va tartiblashtirilgan elementlardan tashkil topgan,

yagona maqsad sari intiluvchi ob'ekt yoki ob'ektlar yig'indisi.

Ushbu tadqiqot ishi tizimli yondashuv asosida talabalarining texnologik kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, hamda ishlanmalar ishlab chiqarilib, talabalarining eksperimental bilimlarni o'zlashtirish asosida ularning ilmiy bilimlarini kengaytirishga bag'ishlanadi.

Texnologik kompetentlik haqida fikr yuritishdan oldin, dastlab “kompetentlik”, “kompetensiya” tushunchalariga to'xtalib o'tsak.


Kompetensiyaga asoslangan tadqiqotchilarining ishlarida “kompetentlik”, “kompetensiya” tushunchalariga quyidagicha izohlar keltirilgan:

- kasbiy faoliyatni ta'minlovchi bilim, ko'nikma va malakalarning yaxlitligi, nazariy bilimlarni amalda qo'llash qobiliyati;
- harakatdagi bilimlar yig'indisi (tizimi);
- muammoga optimal yechim topish, kashf etish qobiliyati;
- faoliyatga tayyorlikning namoyon bo'lish mezonlari sifatida.

Bizning tadqiqot predmeti oliy ta'lim muassasalarining texnik yo'nalishlari talabalarining texnologik kompetentligini rivojlantirish bilan bog'liq bo'lganligi sababli, texnik xodimlarning texnologik kompetentligining mazmuni va tarkibini aniqlashtirish uchun texnologik faoliyatning mohiyatini ko'rib chiqish zarur bo'ladi.

“Texnologik kompetensiya” iborasi “texnologik” va “kompetensiya” tushunchalarini o'z ichiga oladi. “Texnologik” so'zi “texnologiya” atamasiga asoslangan bo'lib, “ishlab chiqarishning turli tarmoqlarida amalga oshiriladigan xomashyo, yarimtayyor mahsulotlar yoki mahsulotlarni qayta ishlash yoki qayta ishlash texnikasi va usullari majmui va hokazolarni o'z ichiga oladi”.

Oliy ma'lumotga ega bo'lgan muhandisda texnologik kompetentlikni rivojlantirish uchun quyidagi kompetentliklar bo'lishi zarur (1-rasm).



1-rasm. Texnologik kompetentlikning tarkibiy tuzilmasi

Texnologik kompetentlikning tarkibiy qismlarini aniqlashda biz, birinchi navbatda, oliy ta'limda kompetensiyaga asoslangan yondashuv muammolari bo'yicha yuqorida ko'rib chiqilgan tadqiqotlarni tahlil qilish va umumlashtirgan holda texnologik kompetensiyaga quyidagi ishchi ta'rifni ishlab chiqdik.

Texnologik kompetentlik - bu mutaxassisning ishlab chiqarish va kasbiy faoliyatga tayyorligini belgilaydigan, ishlab chiqarish va texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish bosqichlari uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish qobiliyatida namoyon bo'ladigan kasbiy ahamiyatga ega shaxsiy xususiyatdir.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Oliy ta'lim muassasalari talabalarining texnologik kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish”** deb nomlanib, ushbu bobda muhandislik fizikasi fanini o'qitishning didaktik imkoniyatlari, tizimli yondashuv asosida talabalarining texnologik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik mohiyati va modeli, talabalarining texnologik kompetentligini rivojlantirishda tashkiliy va pedagogik shartlarning joriy etilish metodikasi interaktiv metodlar yordamida takomillashtirilgan.

Talabalarda texnologik kompetentlikni rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlariga aniqlik kiritish psixologik-pedagogik adabiyotlarda muammoning qay darajada ekanligini, jamiyatning ijtimoiy tartibini, davlat ta'lim standartini, talabalar mustaqil ta'limini faollashtirish darajalari hamda mezonlarini o'z ichiga qamrab olishini nazarda tutgan holda tadqiqotimizning mazmunidan kelib chiqqan holda talabalarining texnologik kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishda quyidagi **didaktik shartlarni** belgilab oldik:

Dasturiy ta'minot sharti;

Metodologik shart;

Natijaviy shart.

Talabalarda texnologik kompetentlikni rivojlantirish ta'lim mazmunini o'zlashtirishda talabalarining bilim saviyasi, o'zlashtirish darajasi, ta'lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda o'qitish jarayonini tashkil etishni talab qiladi. Bunda quyidagi **didaktik sharoitlarga** amal qilish lozimligi nazarda tutiladi:

Tashkiliy sharoitlar;

Motivatsion sharoitlar;

Kommunikativ sharoitlar;

Konstruktiv sharoitlar;

Texnologik sharoitlar;

O'quv-uslubiy sharoitlar.

Yuqorida sanab o'tilgan didaktik shart-sharoitlarni umumlashtirgan yechimi sifatida tadqiqotimizda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ahamiyatli deb hisoblaymiz. Shu maqsadda tadqiqotimiz jarayonida talabalarining texnologik kompetentligini rivojlantirish uchun zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish, mustaqil tarzda axborotni qidirish, ular ustida qayta ishlashning amaliy muammolarni bartaraf etishga talabalarining kasbiy faoliyatini amalga oshirishning asosiy vositasi “Muhandislik fizikasi” fanidan elektron o'quv qo'llanma ishlab chiqildi.

Tadqiqotimiz davomida yaratilgan **“Muhandislik fizikasi fani yordamida talabalarining texnologik kompetentligini rivojlantirish dasturi”** nomli elektron


o'quv qo'llanma platformasiga O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligining 2024 yil 23-avgustdagi № DGU 42037 sonli guvohnomasi olindi. Ushbu platforma Autoplay Media Studio dasturi asosida yaratilgan bo'lib, uning bosh menyusida ma'ruza mashg'ulotlar, amaliy mashg'ulotlar, fan sillabusi, taqdimotlar, laboratoriya mashg'ulotlari, test savollari, mustaqil ta'lim ish toshiriqlari, kerakli adabiyotlar va muallif haqida oynalardan iboratdir (2-rasm).



2-rasm. “**Muhandislik fizikasi fani yordamida talabalarning texnologik kompetentligini rivojlantirish dasturi**” deb nomlangan platformaning asosiy oynasi umumiy ko‘rinishi.


Bundan tashqari biz tadqiqot ishimiz davomida talabalarning texnologik kompetentligini rivojlantirish uchun mo‘ljallangan mobil ilova dasturini ham yaratdik. Ushbu ilova oliy ta’lim muassasalari barcha ta’lim yo‘nalishi talabalarining “Muhandislik fizikasi” fanini o‘zlashtirishda o‘quv jarayoniga an’anaviy, onlayin va modul-kredit tizimidan foydalanish asosida o‘qitishning samaradorligini oshirish, ko‘rgazmaliligini ta’minlash hamda metodik tizimini loyihalash sohasida foydalanish mumkin.

Hozirgi vaqtda talabalarning texnologik kompetentligini rivojlantirish jarayoni bir qator yondashuvlarga bog‘liq bo‘ladi. Ana shunday yondashuvlar nimalardan iborat va ularni tashkil etish qanday muhim masalalardan hisoblanishini atroflicha qarab chiqdik (3-rasm).



3-rasm. Talabalarning texnologik kompetentligini rivojlantirishning yondashuvlar tizimi.

Bo‘lajak muhandislarni texnologik kompetentligini rivojlantirish tamoyillari orasidan eng asosiylarini, ya’ni butun kasbiy tayyorgarlik jarayoni mazmuni va uni tashkil etishning asosini tasniflaydigan bo‘lajak muhandislarni texnologik kompetentligini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari va ularning kasbiy tayyorgarlik jarayoniga ta’sirini aks etiruvchi quyidagi tamoyillarni ajratib olish kerak (4-rasm).




4-rasm. Kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoniga ta’sir etuvchi tamoyillar

Model (lotin modulus o‘lchovidan, namuna) - bu o‘rganilayotgan obyektga (yoki hodisaga) o‘xshash bo‘lgan diagramma, fizik konstruksiyalar, belgilar yoki formulalar shaklida sun’iy ravishda yaratilgan obyekt bo‘lib, oddiy va umumlashtirilgan shaklda ushbu obyekt elementlari o‘rtasidagi tuzilish, xususiyatlar va munosabatlarni aks ettiradi va takrorlaydi. Shu bilan birga, qoida tariqasida, obyektни bevosita o‘rganish har qanday qiyinchiliklar bilan bog‘liq, masalan, moliyaviy yoki texnik xususiyatlar bilan. Modellarni shartli ravishda uch turga bo‘lish mumkin:

- fizik modellar (tabiiy, asliga o‘xshash);
- matematik (fizik tabiati aslidan farq qiladi, lekin asl nusxani matematik tavsiflash mumkin);
- mantiqiy-semiotik (maxsus belgi, simvol va tuzilmalardan iborat).

Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz bo‘lajak sanoat muhandislarini texnologik kompetentligini rivojlantirishning metodik modelini keltirib o‘tamiz. Mazkur metodik model o‘zaro bog‘langan va bashoratlash imkonini beruvchi to‘rtta bloklardan tashkil topdi: maqsad, mazmun, jarayon va diagnostik-natijaviy (5-rasm). Maqsad komponenti ijtimoiy buyurtma va maqsadni o‘z ichiga oladi. Mazmun komponenti vazifalar, yondashuvlar, tamoyillar, rivojlantiriladigan texnologik kompetentlik komponentlari va didaktik shart-sharoitlardan tashkil topgan bo‘lib, bo‘lajak sanoat muhandislarini texnologik kompetentligini rivojlantirishning nazariy asosini belgilab beradi.



5-rasm. Bo'lajak sanoat muhandislarini texnologik kompetentligini rivojlantirishning metodik modeli

Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan metodik model maqsaddan natijaga tomon yoʻnalishli vektorni koʻrsatadi. Vektor yoʻnalishi asosan umumkasbiy fanlarni fanlararo tizimli yondashuv asosida talabalarni texnologik kompetentligi komponentlarini rivojlantirishga yoʻnalgan boʻlib, mazkur modelning samaradorligini belgilab beradi.

Talabalarining kelajakdagi kasbiy faoliyatini modellashtirish uchun mutaxassisliklarning ixtisoslik fanlari boʻyicha oʻzaro bogʻliq boʻlgan fanga yoʻnaltirilgan, amaliyotga yoʻnaltirilgan va kasbiy vazifalar majmuasi boʻlgan kompetentsiyaga yoʻnaltirilgan oʻquv vazifalari tizimi ishlab chiqilgan. Vazifalar majmuasiga kompetentsiyani rivojlantirish bosqichlarida talabalarining rivojlanish darajasini hisobga olgan holda turli murakkablikdagi texnologik kompetentlikni rivojlantirishga yoʻnaltirilgan innovatsion testlar va maxsus topshiriqlar toʻplami kiritilgan.

Bulardan tashqari biz talabalarining texnologik kompetentsiyalarini rivojlantirishda zamonaviy interaktiv taʼlim metodlari, elektron taʼlim vositalari, mobil texnologiyalaridan foydalandik.

Quyida biz talabalarda texnologik kompetentsiyalarini rivojlantirishga qaratilgan bir nechta interaktiv taʼlim metodlariga toʻxtalib oʻtamiz.

Bulardan tashqari biz talabalarining texnologik kompetentsiyalarini rivojlantirishda zamonaviy interaktiv taʼlim metodlari, elektron taʼlim vositalari, mobil texnologiyalaridan foydalandik.

Quyida biz talabalarda texnologik kompetentsiyalarini rivojlantirishga qaratilgan bir nechta interaktiv taʼlim metodlariga toʻxtalib oʻtamiz.

“The Insights method” (Insayts) metodi. Ushbu metoddan individual ham, doʻstlar yoki jamoa bilan bir vaqtning oʻzida bir-birini qoʻllab-quvvatlagan holda ham foydalanish mumkin.

Ushbu metod bilan rasmni koʻrish orqali, murakkabroq muammolarni hal qilish va yaratuvchanlik konstruktiv koʻnikmani oshirish mumkin.

Biz yoshimiz ulgʻaygani sayin, miyamiz turli faktlarni bogʻlash va yangi gʻoyalarni koʻrish va eski qarashlarga yangi bilimlar bilan qarshi chiqish qobiliyatini rivojlantiradi. Biz yangi narsalarni bolalar kabi tez yodlay olmaymiz va oʻrgana olmaymiz, lekin koʻproq tajribaga ega boʻlganimiz bois rasmda koʻrish uchun foydalanishimiz kerak boʻlgan kengroq maʼlumotlar spektriga egamiz. Bu usul sizga tushuncha hosil qilish va yangi gʻoyalarni yaratish qobiliyatingizni mashq qilishga yordam beradi.

Har bir insayt uchun har kuni bitta ball olasiz. Siz kuniga kamida bitta yangi insaytga, yaʼni yangi bir gʻoyaga ega boʻlishingiz kerak, agar boʻlmasa, bu oʻyin tugaydi va siz 0 ball bilan qaytadan boshlashingiz kerak. Mavzu boʻyicha oldingi qarashingizni oʻzgartiradigan tushunchalar uchun siz qoʻshimcha ball olasiz.

Ushbu oʻyinning maqsadi shundaki, siz oʻzingiz oddiy muammolarni koʻrib, murakkabroq muammolarni hal qilishni yaxshilaysiz.

Metodni qoʻllash davomida bajarishingiz kerak boʻlgan bosqichlar:

✓ Yangi fikr va gʻoyalarni yozib qoʻying, ular nimani anglatishini va undan qanday foydalanishni oʻylab koʻring.

✓ Insights metodidagi g'alabangizni nishonlash uchun baland ovozda har kunlik insaytingizni ovoz chiqarib ayting!

Scoring discussion metodi. Scoring discussion (muhokamani baholash) – bu berilgan ma'ruza, topshiriq, hisobot yoki videoga qaratilgan intellektual suhbat jarayonidir. Ishtirokchilar berilgan mavzu material bilan tanishadilar va haqiqatga - nimani noaniq - tushuntirishga, hodisaning sabablarini topishga yoki kimningdir xatti-harakatini asoslashga erishish uchun muhokamani boshlaydilar.

Belgilangan muhokamani o'tkazish qoidalar:

1. Belgilangan muhokamada bir nechta talabalar (baholanganlar) qatnashadilar, qolganlari esa uni tinglaydilar;
2. Fikr almashish jarayonida talabalar tomonidan beriladigan ma'lumotlarning mazmuni ham, xatti-harakati ham baholanadi;
3. Baholash maxsus ball kartasiga ball qo'yish orqali amalga oshiriladi;
4. Munozara mavzu va talabalarning bilimiga qarab ma'lum vaqt (8-20 minut) davom etadi;
5. Ishtirokchilar mavzu rejasidan foydalanadilar (mavzudan chetga chiqmaslik uchun);
6. Munozara davomida qilingan eslatmalardan foydalanishlari mumkin.

Yuqorida sanab o'tilgan metodlaridan foydalangan holda "Muhandislik fizikasi" fanidan dars ishlanmasi ishlab chiqildi. Bu ishlanmani ta'lim jarayonida qo'llash talabalarda texnologik kompetentlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning **"Tizimli yondashuv asosida talabalarning texnologik kompetentligini rivojlantirish uchun tajriba-sinov ishlari va uning natijalar tahlili"** deb nomlangan uchinchi bobida talabalarning texnologik kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o'tkazish, pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalarini tahlil etish, ijodiy kasbiy topshiriqlarni elektron ta'lim vositalari yordamida talabalarda texnologik kompetensiyalarning rivojlanganlik darajalarini baholash mezonlari optimallashtirilgan.

Tajriba-sinov ishlari onlayn so'rovnoma, kirish testi va maxsus topshiriqlar o'tkazish orqali tashkil etildi. Pedagogik tajriba-sinov ishi 2021-2024 o'quv yillarda Farg'ona politexnika instituti, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti hamda Jizzax politexnika institutlarida 60721200 - Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (trikotaj) ta'lim yo'nalishida uch yil davomida olib borildi. Tajriba oxirida tajriba-sinov guruhlaridan (TG) - 186 nafar talaba va nazorat guruhida (NG) - 183 nafar talaba qatnashishdi

Shunday qilib, tajriba-sinov ishlarining umumiy maqsadiga bo'ysunadigan uchta tadqiqot bosqichi mavjud:

1. Izlanish;
2. Tahlil qilish;
3. Tajriba-sinov (Yakunlovchi).

Tajribaning barcha bosqichlari mantiqan bog'langan va umumiy maqsad bilan belgilanadi. Maqsadlar, mazmun va aniq shart-sharoitlarga qarab, olingan natijalarning ancha yuqori darajada ishonchliligini ta'minlovchi tadqiqot usullari aniqlandi. Bunday usullarni tanlash, birinchi navbatda, o'rganilayotgan

ob'ektlarning uzluksiz o'zgarishi va rivojlanishini hisobga olgan holda, ularni tanlashning to'g'riligiga, ob'ektivligiga, fanning metodologik tamoyillariga asoslandi.

Talabalarining "Muhandislik fizikasi" o'quv fani modullarini tizimli yondashuv asosida o'zlashtirish natijalarini baholash uchun testlar, amaliy ishlar ishlab chiqildi. "Muhandislik fizikasi" o'quv fani modullarini tizimli yondashuv asosida o'rganishda o'zlashtiriladigan nazariy bilimlar, amaliy ko'nikma va malakalar asosida rivojlanadigan texnologik kompetentlik majmuasi uch darajada qaraldi: past, o'rta, yuqori. Bo'lajak sanoat muhandislarining texnologik kompetentligini rivojlanganlik darajasi va ko'rsatkichlari mezonlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

"Muhandislik fizikasi" o'quv fani modullarini tizimli yondashuv asosida o'rganishda talabalarda nazariy bilimlar va texnologik kompetentligini rivojlanganligi mezonlari va darajalar ko'rsatkichlari

Mezonlar	Ko'rsatkichlar	Darajalar
Reproduktiv	Sanoat korxonalarida mustaqil kasbiy faoliyat olib bora olmaydi, o'qituvchi yordamida farazni shakllantirsa, maqsadni aniqlasa va metodni tanlay olsa, berilgan topshiriq obyektini va predmetini mustaqil bajara olmaydi, o'z kasbiy faoliyatini mustaqil tahlil qila olmaydi texnologik kompetentligi past darajada rivojlangan.	Past
Izlanuvchi	Sanoat korxonalarida mustaqil kasbiy faoliyat olib boradi, individual tarzda ishlab muammoli vaziyatlarning yechimini topadi, o'qituvchi yordamida yoki mustaqil ravishda topshiriqqa bog'liq holda mavjud namunaga asoslanib va ular orasidan o'zgaruvchan sharoitga javob beradiganlarni tanlab farazni shakllantira oladi, internet tarmoqlaridan foydalanishni, u bilan ishlashni biladi va tushunadi, berilgan topshiriq maqsadini aniqlaydi va metodni tanlay oladi, texnologik kompetentligi o'rta darajada rivojlangan.	O'rta
